2026-yil
9-son

“FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI”

ILMIY - METODIK

JURNALI

saen.uz

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9-son

Bosh muharrir:
Shoumarov G‘ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori, akademik

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Qodirov Umarali Do‘stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas’ul kotib:
Muqimov Alisher

Texnik muharrir:
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

TAHRIR HAY’ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A’zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A’zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo‘lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To‘xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o‘g‘li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To‘xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
G‘ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9-son

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA FANLARI
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya
Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9-son

UDK 355.233:687.1-055.2

Samatova Lola Yusupovna,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil tadqiqotchisi

HARBIY XIZMATCHI AYOLLAR HARBIY FORMA KIYIMLARINING EVOLYUTSIYASI: JAHON TAJRIBASI VA O‘ZBEKISTON QUROLLI KUCHLARIDA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Annotatsiya. Maqolada harbiy xizmatchi ayollar uchun mo‘ljallangan harbiy forma kiyimlarining shakllanishi va tarixiy rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. XIX asrdagi harbiy-tibbiy xizmat kiyimlaridan boshlab, Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari davrida ayollarning harbiy xizmatga keng jalb etilishi hamda XXI asrda funksional, ergonomik va antropometrik talablarga asoslangan zamonaviy harbiy kiyim va ekipirovka tizimlariga o‘tish jarayonlari yoritiladi. AQSh, Buyuk Britaniya va sobiq Sovet Ittifoqi tajribasi asosida an’anaviy «jaket–yubka» modelidan shim, kamuflyaj kiyimlari, taktik poyabzal va individual himoya vositalarini qamrab oluvchi zamonaviy tizimga o‘tish tendensiyalari ochib beriladi.

Maqolada, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida harbiy kiyim-bosh tizimining mustaqillik yillaridagi rivojlanishi, 2017–2019-yillardagi modernizatsiya va milliylashtirish jarayonlari hamda mahalliy ishlab chiqarish imkoniyatlaridan foydalanish masalalari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ayol harbiy xizmatchilarning antropometrik xususiyatlari va O‘zbekistonning iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda harbiy forma kiyimlarini takomillashtirishga qaratilgan zamonaviy tadqiqotlar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida harbiy xizmatchi ayollar formasining estetik farqlanishdan funksionallik, ergonomika, himoya va antropometrik moslashuvga asoslangan kompleks tizim tomon rivojlanayotgani asoslanadi.

Kalit so‘zlar: harbiy forma, ayol harbiy xizmatchilar, harbiy kiyim, forma dizayni, kamuflyaj, jangovar kiyim, ergonomika, antropometriya, harbiy ekipirovka, O‘zbekiston Qurolli Kuchlari.

ЭВОЛЮЦИЯ ВОЕННОЙ ФОРМЫ ЖЕНЩИН-ВОЕННОСЛУЖАЩИХ: МИРОВОЙ ОПЫТ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ В ВООРУЖЁННЫХ СИЛАХ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. В статье анализируются этапы формирования и исторической эволюции военной формы женщин-военнослужащих. Рассматривается развитие форменной одежды от военно-медицинской униформы XIX века и массового привлечения женщин к военной службе в годы мировых войн до современных систем боевой одежды и экипировки,

основанных на требованиях функциональности, эргономики, защиты и антропометрической адаптации. На примере США, Великобритании и бывшего Советского Союза раскрываются тенденции перехода от традиционной модели «жакет–юбка» к брюкам, камуфляжной одежде, тактической обуви и средствам индивидуальной защиты.

Особое внимание уделено развитию системы военной формы в Вооружённых Силах Республики Узбекистан в период независимости, процессам её модернизации и национализации в 2017–2019 годах, а также использованию возможностей отечественного производства. Анализируются современные исследования, направленные на совершенствование военной формы с учетом антропометрических особенностей женщин-военнослужащих и климатических условий Узбекистана. Обосновано, что развитие военной формы женщин-военнослужащих происходит от внешней эстетической дифференциации к комплексной системе, ориентированной на функциональность, эргономику, защиту и индивидуальную антропометрическую адаптацию.

Ключевые слова: военная форма, женщины-военнослужащие, военная одежда, дизайн формы, камуфляж, боевая одежда, эргономика, антропометрия, военная экипировка, Вооружённые Силы Узбекистана.

EVOLUTION OF MILITARY UNIFORMS FOR FEMALE SERVICE MEMBERS: GLOBAL EXPERIENCE AND DEVELOPMENT TRENDS IN THE ARMED FORCES OF UZBEKISTAN

Abstract. The article analyzes the formation and historical evolution of military uniforms for female service members. It traces the development of military attire from nineteenth-century military medical uniforms and the large-scale involvement of women in military service during the World Wars to modern combat clothing and equipment systems based on functionality, ergonomics, protection, and anthropometric adaptation. Using the experience of the United States, the United Kingdom, and the former Soviet Union, the study examines the transition from the traditional jacket-and-skirt model to trousers, camouflage clothing, tactical footwear, and personal protective equipment.

Particular attention is given to the development of military uniforms in the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan during the independence period, including modernization and nationalization processes in 2017–2019 and the use of domestic production capabilities. The study also considers recent research aimed at improving military uniforms by taking into account the anthropometric characteristics of female service members and Uzbekistan's climatic conditions. The findings indicate that the evolution of military uniforms for female service members is shifting from external aesthetic differentiation toward an integrated system

focused on functionality, ergonomics, protection, and individual anthropometric adaptation.

Keywords: military uniform, female service members, military clothing, uniform design, camouflage, combat clothing, ergonomics, anthropometry, military equipment, Armed Forces of Uzbekistan.

Kirish. Formali kiyim davlat tuzilmalari — vazirliklar, idoralar va tashkilotlar vakillarining yagona tashqi qiyofasini shakllantirishga xizmat qiluvchi standartlashtirilgan kiyim tizimi hisoblanadi. U funksional xususiyatlariga ko‘ra harbiy, idoraviy va maxsus kiyimlarga bo‘linadi [1]. Formali kiyim yagona namuna-etalonlar, materiallar, bichimlar, ranglar va farqlovchi belgilar asosida tayyorlanib, bir vaqtning o‘zida himoya, identifikatsiya va axborot berish funksiyalarini bajaradi.

Harbiy formali kiyim harbiy atributika elementlaridan foydalangan holda harbiylashtirilgan vazirlik va idoralarning harbiy xizmatchilari hamda xodimlari uchun mo‘ljallangan kiyim-kechak buyumlari majmuini tashkil etadi. Harbiy formali kiyimning namuna-etalonlari tegishli vazirlik va idoralar rahbarlarining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi [1].

Harbiy kiyim formasi davlat qurolli kuchlarining muhim tashqi belgilaridan biri bo‘lib, harbiy xizmatchining muayyan davlatga, qo‘shin turiga, harbiy qism yoki bo‘linmaga mansubligini ifodalaydi. Shu bilan birga, harbiy forma intizom, subordinatsiya, kasbiy identifikatsiya va jangovar vazifalarni samarali bajarish vositasi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Harbiy kiyim-boshning konstruksiyasi, materiali, rangi va farqlovchi belgilari muayyan tarixiy davrdagi harbiy doktrina, texnologik taraqqiyot darajasi, ijtimoiy munosabatlar hamda jang olib borish usullari bilan uzviy bog‘liq [12].

Harbiy xizmatchi yoki tegishli vazirlik, idora va muassasa xodimi bo‘lmagan shaxslarning tasdiqlangan harbiy formali kiyimni, shu jumladan, uning farqlovchi belgilari va ramzlariga ega bo‘lgan kiyimlarni kiyishi qonunchilikda belgilangan tartibda taqiqlanadi. Harbiy formali kiyimdan foydalanishning qonuniyligi ustidan nazorat tegishli vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi [1].

Harbiy xizmatchi ayollar formasining tarixiy evolyutsiyasiga nazar tashlanganda, ayollarning qurolli kuchlardagi vazifalari o‘zgarib borgani sari ularning kiyimlariga qo‘yiladigan talablar ham transformatsiyaga uchraganini ko‘rish mumkin. Agar XIX asrda ayolning harbiy tuzilmalardagi asosiy timsoli, avvalo, hamshiralik faoliyati bilan bog‘langan bo‘lsa, XXI asrga kelib ayollar uchuvchi, muhandis, aloqachi, harbiy shifokor, shtab ofitseri, harbiy politsiya xodimi va ayrim davlatlarda bevosita jangovar bo‘linma harbiy xizmatchisi sifatida ham xizmat qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, harbiy xizmatchi ayollar formasining rivojlanishi oddiy kiyim yoki moda tarixi emas, balki ayollarning qurolli kuchlardagi institutsional maqomi o‘zgarishining moddiy va vizual ifodasidir [6; 11; 12].

Qadimgi va o‘rta asrlarda Sibir hamda Markaziy Osiyo xalqlarida ayollarning harbiy harakatlarda ishtirok etganidan dalolat beruvchi tarixiy, folklor, tasviriy va arxeologik manbalar mavjud. Ularda O‘rta Osiyodagi ayrim qabila va siyosiy birliklarni boshqargan ayollar, shuningdek, harbiy harakatlarda bevosita qatnashgan jangchi ayollar haqida ma’lumotlar uchraydi [10].

Tarixiy manbalarda jangchi ayollarning kamon va o‘q, jangovar bolta, dubulg‘a, himoya belbog‘i, qalqon va boshqa qurol-aslahalardan foydalangani qayd etiladi. O‘rta asrlarga oid Panjikent devoriy suratlaridagi qurolli ayol obrazlari hamda turkiy va mo‘g‘ul xalqlarining qahramonlik dostonlaridagi jangchi ayollar timsollari mazkur masalaning tarixiy ildizlari chuqur ekanini ko‘rsatadi [5; 10].

Arxeologik materiallar yozma va folklor manbalarini to‘ldirib, Markaziy Osiyo tarixiy-madaniy hududida ayollarning harbiy faoliyatda turli darajada ishtirok etganiga oid qo‘shimcha dalillarni taqdim etadi [5; 10]. Jangchi ayollarning tashqi ko‘rinishi va qurol-aslahalari haqidagi ma’lumotlar qator tarixiy-badiiy manbalarda ham uchraydi. Xususan, Firdavsiyning “Shohnoma” asarida Gurdafarid jangovar mahoratga ega ayol sifatida tasvirlanib, uning zirhli kiyim va dubulg‘adan foydalangani bayon qilinadi.

Panjikent devoriy suratlarini o‘rgangan sovet arxeologi A.M. Belenitskiy ayrim jang sahnalarida ayol jangchi obrazlari mavjudligini qayd etgan. Shuningdek, VIII–IX asrlarga oid ayrim tasviriy yodgorliklarda jangchilar kaftan, belbog‘, shim va yumshoq etiklarda, qurollangan holda tasvirlangan [8].

Zamonaviy ayollar harbiy formasi, asosan, XIX asr o‘rtalaridan boshlab harbiy tibbiyot tizimining institutsionallashuvi, XX asr boshlarida esa ayollarning muntazam harbiy va yordamchi xizmatlarga jalb etilishi bilan shakllana boshladi. Dastlabki kiyimlar ko‘pincha erkaklar formasining moslashtirilgan variantlari yoki fuqarolik kiyimlariga yaqin xizmat liboslaridan iborat edi. Vaqt o‘tishi bilan ayollar antropometrik xususiyatlariga mos, qulay va funksional kiyim yaratishga ehtiyoj kuchaydi [12].

Ikkinchi jahon urushi davriga kelib ayollar formasida yubka, jaket, xizmat ko‘ylagi va maxsus bosh kiyim kabi elementlar mavjud bo‘lsa-da, jangovar hamda texnik vazifalarning kengayishi shim, kombinezon, maxsus poyabzal va boshqa funksional kiyim elementlarining tobora ko‘proq qo‘llanishiga olib keldi [6; 11].

Bugungi kundagi harbiy xizmatchi ayollar formasi avvalgi davrlardagi namunalardan tubdan farq qiladi. Zamonaviy materiallar mustahkamlik, yengillik, havo o‘tkazuvchanlik, namlikni boshqarish, issiqlik almashinuvi va tashqi muhit ta’siridan himoyalanish kabi ko‘plab funksional xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Zamonaviy texnologiyalar suvga, namlikka va ayrim hollarda olov ta’siriga chidamli materiallarni yaratish imkonini berib, harbiy kiyimning himoya xususiyatlarini oshirmoqda.

Bundan tashqari, harbiy forma harakatlanish, jismoniy mashqlar hamda jangovar vazifalarni bajarishga xalaqit bermasligi lozim. Kurtka va shimlardagi cho‘ntaklarning joylashuvi, choklarning mustahkamligi, mahkamlash vositalari,

kiyimning tana harakatiga mosligi kabi konstruktiv omillar zamonaviy forma loyihalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Harbiy forma estetik va reprezentativ vazifani ham bajaradi. Ayniqsa, kundalik va tantanali kiyimlarda kiyimning harbiy xizmatchi qomatiga mosligi, tartibliligi, maqom va kasbiy mansublikni ifodalashi muhimdir. Biroq zamonaviy yondashuvda estetik xususiyat funksionallik va ergonomik talablarni cheklamasligi kerak [9].

Shu sababli harbiy xizmatchi ayollar formasining evolyutsiyasini tarixiy, ijtimoiy, texnologik, ergonomik va antropometrik omillar o‘zaro bog‘liqligida o‘rganish dolzarb ilmiy masalalardan biridir.

Tadqiqotning maqsadi. Maqolaning maqsadi jahon harbiy tarixida harbiy xizmatchi ayollar formasining shakllanish va rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash, uning asosiy evolyutsion bosqichlarini tavsiflash hamda mazkur jarayonni O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridagi harbiy kiyim-bosh islohotlari bilan qiyosiy-tarixiy tahlil qilishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Harbiy xizmatchi ayollar formasiga bag‘ishlangan ilmiy adabiyotlarni shartli ravishda uch asosiy yo‘nalishga ajratish mumkin. Birinchi yo‘nalish ayollarning qurolli kuchlar tarkibiga kirib kelishi, ularning harbiy-ijtimoiy maqomi va professional faoliyati tarixini o‘rganishga qaratilgan [6; 7; 11]. Ikkinchi yo‘nalish harbiy forma, uniforma va atributikani moddiy madaniyat hamda harbiy identifikatsiya obyekti sifatida tadqiq etadi [8; 12]. Uchinchi yo‘nalish esa zamonaviy harbiy kiyimlarni ergonomika, antropometriya, materialshunoslik va dizayn nuqtai nazaridan o‘rganadi [2; 3].

Amerikalik tarixchilar Barton Haker va Margaret Vining tahriri ostida nashr etilgan “Cutting a New Pattern: Uniformed Women in the Great War” (“Yangi namuna ochish: Ulug‘ urush davrida formali ayollar”) asari Birinchi jahon urushi davrida Yevropa, Amerika, Rossiya va boshqa hududlarda ayollarning formali kiyimga o‘tish jarayonini o‘rganishga bag‘ishlangan fundamental tadqiqotlardan biridir. Unda harbiy forma ayollarning urushdagi ishtirokini vizual jihatdan legitimlashtiruvchi va ularning yangi ijtimoiy maqomini namoyon etuvchi vosita sifatida talqin qilinadi [12].

Smithsonian Institution materiallarida Birinchi jahon urushi davridagi ayollar xizmat kiyimlari jaket va yubkadan iborat kostyumlar, bridji yoki kombinezonlar, shuningdek, ko‘ylak va fartuklar kabi asosiy turlarga ajratib ko‘rsatiladi.

AQShdagi “Women’s Army Corps” tarixini o‘rgangan amerikalik harbiy tarixchilar Metti Treduell va Betti Morden asarlarida Ikkinchi jahon urushi hamda urushdan keyingi davrda ayollarning armiyadagi professional maqomi va forma tizimidagi o‘zgarishlar keng yoritilgan [11]. Buyuk Britaniyaning National Army Museum materiallarida esa “Auxiliary Territorial Service” (ATS) hamda keyinchalik tashkil etilgan Women’s Royal Army Corps faoliyati xizmat vazifalari va forma evolyutsiyasi bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilinadi.

O‘zbekistonda mazkur yo‘nalishda olib borilayotgan zamonaviy ilmiy tadqiqotlar ham alohida ahamiyatga ega. 2026-yilda e’lon qilingan ma’lumotlarga

ko‘ra, Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti tadqiqotchisi Nargiza Djurayevna Abduraxmanova tomonidan “Harbiy xizmatdagi ayollar uchun belgilangan xususiyatli formali kiyimni loyihalash usulini takomillashtirish” mavzusida 05.06.04 — “Tikuvchilik buyumlari texnologiyasi va kostyum dizayni” ixtisosligi bo‘yicha texnika fanlari falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya tayyorlangan. Tadqiqotda ayollar qomatining antropometrik xususiyatlari va O‘zbekistonning iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda ergonomik hamda gigiyenik xususiyatlari takomillashtirilgan formali ko‘ylakni ishlab chiqish masalalari o‘rganilgan [2].

Mazkur manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, harbiy xizmatchi ayollar formasini o‘rganish faqat kiyim dizayni bilan chegaralanmaydi. Mazkur masala ayollarning harbiy xizmatdagi maqomi, harbiy mehnatning xususiyati, antropometrik ko‘rsatkichlar, iqlim sharoiti, himoya talablari va milliy identifikatsiya bilan bevosita bog‘liq [2; 3; 6; 12].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, xronologik davrlashtirish, manbalarni qiyoslash va kontent-tahlil usullaridan foydalanildi. Mazkur metodlar turli tarixiy davrlar hamda davlatlardagi harbiy xizmatchi ayollar formasining o‘zgarishini ijtimoiy, harbiy, texnologik va funksional omillar bilan o‘zaro bog‘liqlikda tadqiq etish imkonini beradi.

Tadqiqotning xronologik doirasi XIX asr o‘rtalaridan XXI asrning hozirgi davrigacha bo‘lgan jarayonlarni qamrab oladi. Hududiy jihatdan AQSh, Buyuk Britaniya, Rossiya va sobiq Sovet Ittifoqi tajribasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridagi harbiy kiyim-bosh tizimining rivojlanish jarayonlariga asosiy e’tibor qaratildi.

Tahlil jarayonida harbiy formaning tashqi ko‘rinishi bilan bir qatorda uning konstruktiv tuzilishi, materiallari, funksional imkoniyatlari, antropometrik mosligi, himoya xususiyatlari va harbiy xizmatchining xizmat vazifalari bilan aloqadorligi ham hisobga olindi.

Natijalar va muhokama

Harbiy xizmatchi ayollar formasining tarixiy shakllanishi. Birinchi jahon urushiga qadar ayollar muntazam armiyalarga cheklangan darajada jalb etilganligi sababli ular uchun alohida standartlashtirilgan harbiy formaga ehtiyoj ham nisbatan past bo‘lgan [12].

XVII–XIX asrlarda Yevropa armiyalarida ayollar, asosan, tibbiy yordam, oziq-ovqat tayyorlash, kiyimlarni ta’mirlash, kir yuvish va boshqa ta’minot vazifalarini bajargan. Aksariyat hollarda ular rasmiy harbiy xizmatchi maqomiga ega bo‘lmagan. Harbiy xizmatga yashirin ravishda kirgan ayrim ayollar esa erkaklar formasidan foydalangan [5; 12].

XIX asrning o‘rtalaridan harbiy tibbiyot tizimining institutsionallashuvi natijasida hamshiralar uchun uzun ko‘ylak, fartuk va maxsus bosh kiyimdan iborat bir xillashtirilgan xizmat liboslari shakllandi. Bu kiyimlar hali to‘laqonli harbiy

forma bo‘lmasa-da, ayollarning harbiy tashkilotlar bilan tashkiliy aloqadorligini namoyon eta boshladi [12].

Ayollar uchun standartlashtirilgan harbiy forma tizimining keng ko‘lamda shakllanishi Birinchi jahon urushi — 1914–1918-yillar bilan bog‘liq. Ayollarning yordamchi bo‘linmalar va korpuslarga ommaviy jalb etilishi natijasida standartlashtirilgan xizmat kiyimiga ehtiyoj keskin ortdi [12].

Rossiyada 1917-yilda Mariya Bochkaryova boshchiligida tashkil etilgan ayollar harbiy qismlari, jumladan, “Ayollar o‘lim batalyoni” tajribasi muhim ahamiyatga ega. Ularning kiyimi erkaklar piyoda qo‘shinlari formasiga yaqin bo‘lib, gimnastyorka, sharovar, bosh kiyim, etik va shinel kabi elementlardan tashkil topgan [4; 7]. Bu holat jangovar vazifalarni bajarishda funksionallik ustuvor bo‘lganini ko‘rsatadi.

Birinchi jahon urushi davrida ayollarning transport, aloqa, tibbiyot, sanoat va ta’minot sohalaridagi ishtiroki kengayib, harbiy kiyimga bo‘lgan ehtiyojni oshirdi [12]. Smithsonian Institution kolleksiyalarida ushbu davr ayollar kiyimlari jaket-yubkali kostyumlar, bridji yoki kombinezonlar hamda ko‘ylak-fartuklar shaklida tasniflanadi. Ularning konstruksiyasida pogon, kamar, qopqoqli cho‘ntaklar, harbiy tugmalar, xaki rang va maxsus bosh kiyim kabi erkaklar formasiga xos elementlar qo‘llanilgan [12].

Shunday qilib, Birinchi jahon urushi yillarida ayollar kiyimi “harbiylashtirilgan fuqarolik kiyimi”dan funksional xizmat formasiga aylana boshladi. Forma bir vaqtning o‘zida harakatchanlik va amaliy qulaylikni ta’minlash hamda ayollarning harbiy xizmatdagi maqomini ifodalash vazifasini bajardi [12].

Sovet Ittifoqida harbiy xizmatchi ayollar formasining rivojlanishi. XX asrda xotin-qizlarning harbiy xizmatga keng jalb etilishi standartlashtirilgan harbiy kiyim-boshga ehtiyojni kuchaytirdi [6; 7; 11]. Rossiya imperiyasining so‘nggi davrida ayollarning harbiy faoliyati, asosan, tibbiy xizmat bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, Qizil Armiya tashkil etilgach, ayollar kiyimida ham muayyan o‘zgarishlar yuz berdi. Ayol tibbiyot xodimlari va yordamchi xizmat vakillarining kiyimlarida yubka, beret, bluza va botinkalardan foydalanish kengaydi [4; 7].

Ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan ayollarning frontdagi roli keskin kengaydi. Ular hamshira va tibbiyot xodimlaridan tashqari mergan, aloqachi, uchuvchi, zenitchi va boshqa harbiy mutaxassisliklarda xizmat qildilar. Natijada forma jangovar samaradorlikka ta’sir qiluvchi muhim omilga aylandi [6; 11].

1941-yil 3-avgustda SSSR Mudofaa xalq komissarligi tomonidan ayollar uchun maxsus harbiy kiyimlarni joriy etishga oid ko‘rsatmalar qabul qilindi. Unda himoya rangidagi jun beret, kulrang jun palto va xizmat ko‘ylagi kabi elementlar nazarda tutilgan. Biroq ta’minot cheklanganligi sababli ko‘plab ayollar erkaklar shinellaridan foydalanib, ularni o‘z qomatlariga moslashtirishga majbur bo‘lgan [6; 11].

1942-yilda ayollar formasi umumqo‘shin standartlariga yanada yaqinlashtirildi. Frontda beret, gimnastyorka, yubka, paypoq va harbiy poyabzal,

qishki sharoitda esa quloqchinli bosh kiyim, paxtali kurtka, qishki shim, kigiz etik va qo‘lqoplar qo‘llanildi [6; 11]. 1943-yilda pogonlarning qayta joriy qilinishi bilan ayollar formasining umumiy ko‘rinishi erkaklar formasiga yanada yaqinlashdi. Dala sharoitida yubkaning noqulayligi sababli shim va bridjilardan foydalanish kengaydi [6; 11].

Urush yillarida kiyim-kechak, gigiyena va maxsus ichki kiyim bilan ta’minlash muammolari saqlanib qoldi. Ko‘pincha erkaklar uchun ishlab chiqarilgan kiyimlar ayollar qomatiga moslashtirib ishlatilgan [6; 11]. Umuman, front sharoiti nafis yoki dekorativ emas, balki harakatchan, chidamli va jangovar vazifalarga mos kiyimni talab qildi.

AQSh va Buyuk Britaniya tajribasi. Buyuk Britaniyada 1938-yilda Auxiliary Territorial Service (ATS) tashkil etildi. Dastlab ayollar oshpaz, kotiba va omborchi kabi vazifalarda faoliyat yuritgan bo‘lsalar, keyinchalik haydovchi, aloqachi, harbiy politsiya xodimi va texnik lavozimlarda ham xizmat qila boshladilar. Dastlab kiyim o‘lchamlarining cheklanganligi ayrim ayollarga forma antropometrik jihatdan mos kelmasligiga sabab bo‘ldi. Bu esa ayollar uchun maxsus o‘lcham va konstruktiv standartlarni ishlab chiqish zaruratini ko‘rsatdi.

AQShda ayollar harbiy-dengiz kuchlariga Birinchi jahon urushi davridayoq jalb etila boshlagan. 1942-yilda Women’s Army Auxiliary Corps, keyinchalik Women’s Army Corps tashkil etilib, jaket, yubka, xizmat ko‘ylagi va bosh kiyimdan iborat maxsus ayollar formasi shakllantirildi. Urushdan keyingi davrda uning bichimi, ergonomikasi va tana tuzilishiga mosligi bo‘yicha izlanishlar davom etdi [11; 12].

Sovet Ittifoqida ayollarning bevosita jangovar vazifalarga kengroq jalb etilgani forma dizaynining funksional yo‘nalishini kuchaytirdi. Mergan, uchuvchi, pulemyotchi, artilleriyachi va aloqachi kabi mutaxassisliklarda xizmat qilgan ayollar uchun kiyimning harakatchanlik, chidamlilik va amaliy qulaylik xususiyatlari muhim bo‘lgan [6; 11].

Urushdan keyingi davr: kasbiy harbiy xizmat va forma dizayni. 1950–1980-yillarda ko‘plab davlatlarda ayollarning qurolli kuchlardagi ishtiroki vaqtinchalik urush ehtiyojidan doimiy professional faoliyatga aylandi [6; 11]. Bu davrda forma umumiy harbiy standartlarga yaqinlashgan bo‘lsa-da, yubka, bel qismi torroq jaket, maxsus tufli va beret kabi elementlar orqali an’anaviy ayollik belgilarini saqlash davom etdi [11; 12].

Buyuk Britaniyada 1949-yilda Women’s Royal Army Corps tashkil etildi. Keyingi o‘n yilliklarda ayollar uchun xizmat kostyumi bilan bir qatorda shim, ko‘ylak va harbiy botinkalardan iborat funksional kiyimlar ham joriy etildi. AQShda esa 1978-yilda Women’s Army Corps tugatilib, ayol harbiy xizmatchilar umumiy quruqlikdagi qo‘shinlar tizimiga integratsiya qilindi. Bu alohida ayollar formasi konsepsiyasidan umumiy harbiy forma tizimiga o‘tishni tezlashtirdi.

XXI asr: integratsiyalashgan harbiy ekipirovka tizimi. XXI asrda harbiy forma alohida kiyim elementlari majmuasidan yaxlit ekipirovka tizimiga aylandi. U dala

kostyumi, harbiy poyabzal, termoregulyatsion ichki kiyim, ballistik shlem, zirhli nimcha, taktik kamar, ryukzak va boshqa individual himoya vositalarini o‘z ichiga oladi.

Zamonaviy harbiy xizmatchi ayollar formasida antropometrik moslik, harakat erkinligi, issiqlik almashinuvi, havo o‘tkazuvchanligi, yukning to‘g‘ri taqsimlanishi va himoya vositalarining samaradorligi asosiy mezonlarga aylanmoqda [2; 3]. Shu sababli ayollar uchun optimal harbiy forma erkaklar formasining shunchaki kichraytirilgan nusxasi bo‘la olmaydi. Yelka kengligi, ko‘krak, bel va son proporsiyalari, qo‘l va oyoq uzunligi hamda tana morfologiyasi konstruksiyada alohida hisobga olinishi zarur [2; 3].

Turli mamlakatlarda harbiy forma milliy an’analar, iqlim, madaniy omillar va harbiy nizom talablariga ko‘ra farqlanadi. Biroq zamonaviy tendensiyada dekorativ xususiyatlardan ko‘ra funksional, fiziologik va himoya ko‘rsatkichlari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tizimida harbiy xizmatchi ayollar formasining rivojlanishi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy Qurolli Kuchlarni shakllantirish bilan bir qatorda mustaqil harbiy forma, atributika va farqlash belgilari tizimini yaratish zarurati yuzaga keldi.

1992-yil 3-iyulda qabul qilingan “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi 644–XII-son Qonun milliy harbiy xizmat tizimining dastlabki huquqiy asoslaridan birini yaratdi. 1996-yil 9-oktabrdagi PF–1571-son Farmon bilan tasdiqlangan Qurolli Kuchlarning Ichki xizmat nizomi esa harbiy xizmatchilarning tashqi ko‘rinishi va kiyim-kechakni belgilangan tartibda kiyish talablarini mustahkamladi.

2002-yil 12-dekabrda yangi tahrirda qabul qilingan “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi 436–II-son Qonun harbiy kiyim-bosh tizimining huquqiy asoslarini yanada rivojlantirdi. Mazkur huquqiy baza 1992–2016-yillarni milliy harbiy kiyim-bosh tizimining huquqiy va institutsional shakllanish bosqichi sifatida baholash imkonini beradi.

2017–2019-yillarda Qurolli Kuchlarni modernizatsiya qilish jarayonida harbiy xizmatchilarning kiyim-kechak ta’minoti va forma dizayniga ham alohida e’tibor qaratildi [1]. 2018-yilda harbiy kiyimlarning yangi namunalari ko‘rib chiqilib, ularning milliylikni aks ettirishi, qulay va zamonaviy bo‘lishi zarurligi ta’kidlandi [1]. Keyingi davrda harbiy forma yaratish jarayoniga dizaynerlar, olimlar hamda to‘qimachilik va yengil sanoat mutaxassislarining jalb etilishi ilmiy-konstruktorlik yondashuvining kuchayishiga xizmat qildi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda harbiy kiyim-bosh ishlab chiqarishda mamlakat iqlimi, xizmat xususiyatlari, jismoniy harakatchanlik, himoya va gigiyenik ko‘rsatkichlar hisobga olinmoqda. Tantanali, kundalik, shtab va dala kiyimlari bilan bir qatorda zamonaviy matolardan tayyorlangan kamuflyaj kiyimlar ham ishlab chiqarilmoqda. Forma elementlarida milliy tarixiy qadriyatlar va harbiy an’analarni aks ettiruvchi geraldik belgilar qo‘llanmoqda.

Shunday qilib, zamonaviy O‘zbekiston harbiy kiyim-bosh konsepsiyasida milliy identifikatsiya, iqlim sharoitiga moslashuv va xizmat funksionalligi o‘zaro uyg‘unlashmoqda.

So‘nggi yillarda harbiy xizmatchi ayollar uchun forma ishlab chiqish masalasi ham mustaqil ilmiy-konstruktorlik yo‘nalishiga aylanmoqda. Ayollar uchun forma konstruksiyasini takomillashtirish nafaqat dizayn, balki harbiy xizmat samaradorligi, jismoniy faoliyat qulayligi, xavfsizlik va sog‘liqni ta’minlash bilan bog‘liq masala sifatida qaralmoqda [2; 3].

N.D. Abduraxmanovaning 2025–2026-yillardagi tadqiqotida O‘zbekiston Qurolli Kuchlaridagi harbiy xizmatchi ayollar uchun yangi forma assortimenti va dizayni tavsiya etilib, mamlakat iqlimiga mos aralash tolali mato hamda yuqori dinamik muvofiqlikka ega konstruktiv yechim taklif etilgan [2]. Tadqiqot natijalari asosida 2025-yil 5-mayda “Mudofaa vazirligi ayollar harbiy xizmatchilari uchun formali ko‘ylagi” nomi bilan SAP 2815 va SAP 2816-sonli sanoat namunasi patentlari olingan [2]. Bu O‘zbekistonda ayollar harbiy formasini loyihalash ilmiy asoslangan konstruktorlik va ishlab chiqarish bosqichiga o‘tayotganini ko‘rsatadi.

Harbiy xizmatchi ayollar formasining zamonaviy funksional xususiyatlari. Zamonaviy harbiy xizmatchi ayollar kiyimi xizmat vazifasi va sharoitiga qarab dala, kundalik va tantanali kiyim to‘plamlariga ajratiladi. Asosiy elementlar kurtka, shim, ko‘ylak, poyabzal va bosh kiyimdan iborat bo‘lib, ularning konstruksiyasi harakat erkinligi, xavfsizlik va qulaylikni ta’minlashga yo‘naltiriladi [3].

Dala kiyimlarida ko‘p funksiyali cho‘ntaklar, harakatlanishga moslashtirilgan shimlar, mustahkam poyabzal va zarur himoya elementlari qo‘llanadi. Tantanali kiyimlarda esa rasmiy maqom, harbiy an’ana va reprezentativlikni ifodalovchi jaket, yubka yoki shim, bosh kiyim, nishon va medallar asosiy o‘rin tutadi.

Forma konstruksiyasida antropometrik moslik alohida ahamiyatga ega. Yelka kengligi, ko‘krak, bel va son aylanasi, gavda uzunligi, qo‘l va oyoq segmentlari hamda tana proporsiyalarini hisobga olish kiyimning statik va dinamik qulayligini oshiradi [2; 3].

O‘zbekistonning issiq va quruq iqlim sharoitida esa materiallarning havo o‘tkazuvchanligi, namlikni boshqarishi, issiqlik almashinuvi va gigiyenik xususiyatlari muhim hisoblanadi. Shu bois harbiy xizmatchi ayollar formasini loyihalashda antropometrik moslik, funksionallik, iqlimga moslik va himoya xususiyatlarini yagona tizimda hisobga olish maqsadga muvofiqdir [2; 3].

Muhokama. O‘tkazilgan tahlil harbiy xizmatchi ayollar formasining evolyutsiyasida uchta yirik konseptual transformatsiyani ajratib ko‘rsatish imkonini beradi.

Birinchi transformatsiya — ijtimoiy va institutsional identifikatsiya bosqichi. Birinchi jahon urushi davrida forma ayolning harbiy yoki davlat xizmatida ishtirok etayotganini jamoatchilikka namoyon qiluvchi muhim tashqi belgi vazifasini bajargan. Mazkur bosqichda formaning ramziy va identifikatsion funksiyasi ustuvor bo‘lgan [12].

Ikkinchi transformatsiya — funksionallashuv bosqichi. Ikkinchi jahon urushi va undan keyingi davrda ayollar texnik, transport, aloqa hamda ayrim davlatlarda bevosita jangovar vazifalarni bajara boshlashi yubka va fuqarolik libosiga yaqin konstruksiyalarning funksional imkoniyatlari cheklanganini ko‘rsatdi. Natijada shim, maxsus botinka, kombinezon va dala kiyimlari keng tarqaldi [6; 11].

Uchinchi transformatsiya — antropometrik va ergonomik individuallashuv bosqichi. XXI asrga kelib asosiy vazifa ayollar va erkaklar uchun faqat tashqi ko‘rinishi turlicha bo‘lgan forma yaratishdan turli tana parametrlariga ega harbiy xizmatchilar uchun funksional jihatdan optimal kiyim va ekipirovka tizimini ishlab chiqishga o‘tdi. Bu jarayonda gender tafovuti, avvalo, tashqi bezak yoki dekorativ elementlarda emas, balki antropometrik o‘lchamlar, kiyimning tana bilan o‘zaro dinamik aloqasi, fiziologik qulaylik, issiqlik almashinuvi va himoya xususiyatlarida hisobga olinmoqda [2; 3; 12].

O‘zbekistonda olib borilayotgan zamonaviy tadqiqotlar aynan uchinchi yo‘nalish bilan uyg‘unlashadi. Respublikaning issiq iqlim sharoitiga mos yangi materiallardan foydalanish, dinamik muvofiqlikni ta’minlash, harbiy xizmatchi ayollar qomatining antropometrik xususiyatlarini o‘rganish va forma konstruksiyasini ilmiy asosda takomillashtirish milliy harbiy kiyim-bosh tizimining sifat jihatidan yangi bosqichga o‘tayotganidan dalolat beradi [2; 3].

Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston tajribasi jahon harbiy forma rivojlanishidagi umumiy tendensiyalar bilan uyg‘un holda kechmoqda: tarixiy va milliy identifikatsiyani saqlab qolgan holda forma funksionalligi, ergonomikasi va individual moslashuv darajasini oshirishga intilish kuzatilmoqda [1; 2; 3].

Xulosa. Harbiy xizmatchi ayollar formasining rivojlanish tarixi ayollarning qurolli kuchlardagi institutsional maqomi va bajaradigan vazifalarining o‘zgarishi bilan bevosita bog‘liqdir. XIX asrda ularning harbiy tizimdagi ishtiroki, asosan, tibbiyot va ta’minot vazifalari bilan cheklanganligi sababli xizmat kiyimi ham fuqarolik liboslariga yaqin ko‘rinishga ega bo‘lgan [12].

Birinchi jahon urushi davrida formali kiyim ayollarning harbiy va ijtimoiy xizmatini rasman namoyon etuvchi identifikatsion vositaga aylandi. Ikkinchi jahon urushida esa ayollarning texnik, yordamchi va bevosita jangovar vazifalarga keng jalb etilishi funksional dala kiyimlari rivojlanishini jadallashtirdi [6; 11; 12].

XX asrning ikkinchi yarmida yubka, jaket va maxsus ayollar bosh kiyimlariga asoslangan an’anaviy xizmat formasidan shim va funksional ish formasiga o‘tish tendensiyasi kuchaydi. Shu tariqa harbiy xizmatchi ayollar formasi gender farqlanishini namoyon qiluvchi kiyimdan xizmat vazifalarini samarali bajarishga mo‘ljallangan professional kiyim tizimiga aylandi [11; 12].

XXI asrda esa harbiy forma tushunchasi individual himoya vositalari, taktik jihozlar, maxsus poyabzal, ballistik himoya va termoregulyatsion kiyimlarni qamrab oluvchi integratsiyalashgan jangovar ekipirovka tizimi sifatida shakllanmoqda.

O‘zbekistonda harbiy kiyim-bosh tizimining rivojlanishini shartli ravishda to‘rt bosqichga ajratish mumkin:

birinchi bosqich — 1992–2016-yillar: milliy harbiy kiyim-bosh tizimining huquqiy va institutsional asoslarini shakllantirish;

ikkinchi bosqich — 2017–2019-yillar: harbiy forma dizaynini milliylashtirish va modernizatsiya qilish, zamonaviy milliy modelni ishlab chiqishga o‘tish [1];

uchinchi bosqich — 2020–2024-yillar: mahalliy ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish, zamonaviy materiallar va funksional forma modellarini joriy etish;

to‘rtinchi bosqich — 2025-yildan hozirgi davrgacha: harbiy xizmatchi ayollarning antropometrik va fiziologik xususiyatlariga maxsus moslashtirilgan kiyimlarni ilmiy-konstruktorlik asosida ishlab chiqish [2; 3].

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib aytish mumkinki, harbiy xizmatchi ayollar formasining tarixiy evolyutsiyasi uch asosiy yo‘nalishda kechgan: identifikatsiya → funksionallashuv → antropometrik va ergonomik individuallashuv [2; 6; 11; 12].

Shunday qilib, zamonaviy harbiy xizmatchi ayol formasining asosiy vazifasi ayol va erkak o‘rtasida tashqi vizual farq yaratishdan iborat emas. Uning ustuvor maqsadi har bir harbiy xizmatchining xavfsizligi, harakatchanligi, fiziologik qulayligi, antropometrik mosligi va xizmat samaradorligini ta’minlashdan iboratdir [2; 3].

Aynan shu yondashuv kelajakda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida harbiy xizmatchi ayollar uchun forma va individual ekipirovka tizimini yanada takomillashtirishning ilmiy-uslubiy asosini tashkil etishi mumkin [2; 3].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-fevraldagi PQ–2800-son qarori. https://www.lex.uz/uz/docs/-3459498?ONDATE=18.07.2018

2. Abduraxmanova N.D. Harbiy xizmatdagi ayollar uchun belgilangan xususiyatli formali kiyimni loyihalash usulini takomillashtirish. PhD ilmiy darajasini olish uchun diss... — Toshkent, 2026. 120 b.

3. Абдурахманова Н.Д., Миртолипова Н.Х., Насируллаева Г.С. Harbiy xizmatchi ayollarning maxsus kiyim sifatiga qo‘yiladigan dastlabki talablarni shakllantirish // Muhandislik va iqtisodiyot. — 2026. — Vol. 4, No. 2. — P. 37-41.

4. Горшков В.В., Харитонов О.В. *Русская армия 1917–1920*. — СПб.: Каравелла, 1991. – 64 с.

5. Ивик О. Женщины-воины: от амазонок до куноити. — М.: Ломоносов, 2011. — 212 с.

6. Каменева Г.Н. Женщины-военнослужащие (1941-1945 гг.) как объект исторического анализа: методологические подходы исследования // Теория и практика общественно горазвития. – 2015. – № 15. С.114-116.

7. Крылова А. Stalinist Identity from the Viewpoint of Gender: Rearing a Generation of Professionally Violent Women-Fighters in 1930s Stalinist Russia // Gender & History. — 2004. — Vol. 16, No. 3. — P. 626–653.

8. Печейкин А.В. Женская военная форма — забота особая // Военно-исторический журнал. — 2015. — № 3.

9. Рогатнев А.С. Женские шефские военные мундири: курьёз или необходимость? https://tzar.ru/en/node/461

10. Худяков Ю.С. Женщины-воины у народов Сибири и Центральной Азии в древности и средние века. https://cyberleninka.ru/article/n/zhenschiny-voiny-u-narodov-sibiri-i-tsentralnoy-azii-v-drevnosti-i-srednie-veka/viewer

11. Cardona E.C., Markwick R.D. Our Brigade Will Not Be Sent to the Front: Soviet Women under Arms in the Great Fatherland War, 1941–45 // The Russian Review. — 2009. — Vol. 68, No. 2. — P. 240–262.

12. Hacker, Barton C., and Margaret Vining. "Uniforms Make the Woman: Material Culture and Social Technology in the First World War." In Materializing the Military. Artefacts Series: Studies in the History of Science and Technology, edited by Bernard Finn and Barton C. Hacker, 65–76. London: Science Museum Press, 2005.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9-son

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694